


| | | |
|---|---|---|
| 13.00.00 | 13.00.06 | 01.00.00 |
| 13.00.01 | 13.00.07 | 02.00.00 |
| 13.00.02 | 13.00.08 | 03.00.00 |
| 13.00.03 | 13.00.09 | 09.00.00 |
| 13.00.04 | 07.00.00 | 10.00.00 |
| 13.00.05 | 19.00.00 | 11.00.00 |

№5/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 284 sahifa,
14-may, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Tarix fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
Qirg‘izboyev Abdug‘affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O‘. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko‘ra, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo‘yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida maqol va rivoyatlardan foydalanish texnologiyasi ........ 12
Azimova Nodira Xikmatovna

Matematikada o'tkaziladigan sinfdan tashqari viktorina, matematik ertalik va matematik musobaqalarni tashkil etish........ 15
Azizova Dilnoz Yo'ldashevna

Adabiy ta'limda fanlararo integratsiyani rivojlantirishda didaktik o'yinlarning o'rni ........ 19
Hasanova Bahora Isa qizi

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi kognitiv-pragmatik mashqlar turlari va mazmuni........ 22
Jahonova Nargiza Yunus qizi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanidan uyga vazifalarni tashkil etishda QUIZ testlardan foydalanish ........ 28
Jamolova Nodirabegim Jobir qizi

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning dolzarbligi ........ 32
Mazgarova Durdona Shuxrat qizi, Mirzakamolova Komola Xojiakbar qizi

Understanding and Using Articles in English: A Practical Approach........ 35
Mustafoyeva Nigina Shuhrat kizi

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari........ 40
Nosirova Dilfuza

Ona tili va o'qish savodxonligi fanining boshlang'ich ta'limdagi o'rni va ahamiyati ........ 45
Otamurodova Mahfirat Husan qizi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi qaror va qonunlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuv ........ 49
Imamova Nilufar Zabiyxulla qizi, Po'latova Mahfuza To'lqin qizi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy etikasi va madaniy salohiyatini shakllantirish omillari... 52
Qodirova Fotima Rashidovna

Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalarining qiyosiy tahlili.... 55
Shokirova Madinabonu Shomurod qizi

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda mental arifmetikaning o'rni........ 59
Sulaymonova Nigora Olimjon qizi

Boshlang'ich ta'limda ta'lim samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish mexanizmlari (Singapur ta'lim tizimi misolida)........ 63
Taniqulova O'g'iloy Fahriddin qizi

SWOT texnologiyasi asosida talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish modeli........ 66
Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi

Механизмы формирования характера трудолюбия в младшем школьном возрасте ........ 69
Зияев Амаль Толибович

Современные методы обучения иностранному языку в начальных классах ........ 72
Косимова Шахризода Бахромжон кизи, Рузметова Хилола Абдушариповна

Ислам в духовных исканиях льва толстого: уважение великого писателя к религии и пророку ........ 75
Мамасодикова Махзуна Жалол кизи

Проблемы и особенности перевода с узбекского языка на русский: анализ ошибок и пути решения ........ 78
Холмуродова Дилдора Хуснииддиновна

Развитие русского языка в современном мире ........ 80
Чернова Татьяна Алексеевна, Темиров Руслан Расул угли, Хасанов Сайхунбек Килич угли

Ona tili ta'limida muqobil javobli testlardan foydalanishning afzalliklari........ 83
Komilova Lola Nasilloyevna

Maxsus pedagogikani o'qitishda klinik, tarixiy, psixologik, didaktik materiallarni integrativ o'qitish metodlari ........ 91
Djavlanova Nodira Xamza qizi

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining loyihalash kompetentligini shakllantirish ......................... 94
Xidirova Dildora Zayniddinovna

Formation of Cultural Tolerance in Preschool Children Through Foreign Language Learning Using Digital Educational Resources ........................................................ 98
Dadakhanova Mohlaroyim Muratvayevna

Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash va qo'llab-quvvatlashning samarali usullarini o'rganish ......................... 106
Ataullayev Fazliddin Fahriddin o'g'li

O'quv jarayonida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishning ta'limiy aspektlari tahlili ................................ 110
Zubayda Barnoyeva

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy va metodik manbalari ........................................................................................................ 116
Mirxalilova Nargiza Akbarovna, Usmanova Mashkura Mirzoroximovna, Xunarova Lobar Akbaraliyevna

Butun dunyoda nogiron bolalarga nisbatan munosabat: stereotiplar va ularni yengish ................................ 120
Axmadova Shahloxon Voxid qizi

Ijtimoiy va pedagogik riablitatsiyon deviant xulqi bo'lgan o'smirlar ............................................................ 124
Abduvaliyeva Mashhura Abduvohid qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat munosabatlarini tartibga solishda sog'lom ish muhitini yaratish ........................................................................................................ 127
Qosimova Shaxnoza Nuriddinovna

Maktab o'quvchilarida chet tili bo'yicha strategik kompetensiyani shakllantirish: psixolingvistik asoslar ...... 131
Akmalxonova Nodira

Chet tillarini o'zlashtirishning psixolingvistik asoslari: A. A. Leontyev qarashlarining tahlili .......................... 137
B. O. Toshboyeva

O'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning xususiyatlari mazmuni ................................ 143
Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li

Boshlang'ich sinf "tarbiya" darslarida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan mavzularning mazmun-mohiyati ............................................................... 148
Xoliqulova Moxichehra Nodir qizi

Развитие деонтологической компетентности будущих учителей предмета "воспитания" .................... 152
Вахобов Анвар Абдусаттор угли

Obrazli tafakkur – boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stiruvchi vosita ........................................... 155
Turg'unova Xumora Xusniddin qizi

Boshlang'ich sinflarda janriy xususiyatlariga ko'ra ifodali o'qish ko'nikmasining yo'nalishlari ...................... 158
Tirkasheva Xumora Nurali qizi

Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasida dramatik diskursning semantik va sintaktik qurilishi .......... 162
Mavlanova Xafiza Gulmurodovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning teleko'rsatuvlar vositasida nutq madaniyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ............................................................... 166
Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi

"O'z-o'zini rivojlantirish", "amaliyot" hamda "pedagogik amaliyot" tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy, pedagogik talqini ........................................................................................................ 169
Adasheva Matluba

Kursantlarda muzokaraga kirishish ko'nikmalarini shakllantirishda nizoli vaziyatlar strategiyalarining psixologik o'rni ........................................................................................................ 173
Azamjonova Oyniso Qahramon qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvi jarayonida rahbar kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvlari ........................................................................ 178
Berdiyeva Dilafruz Shuxratovna

Boshlang'ich ta'lim o'quv-tarbiya jarayonida mashq daftarining o'rni va ahamiyati ..................................... 182
Bo'ronova Maftuna Valijon qizi

Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari ............. 186
Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich

Yoshlar orasida emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik asoslari .................................................. 191
Darvishxojayev Xasan Abdulxakimovich

Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ............. 195
Djurayeva Nargis Narkulovna

Ingliz tilida talaffuzni oʻrgatishda samarali zamonaviy kompyuter dasturlari ....198
Ernazarova Shahnoza Ergash qizi

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ekologik tarbiyaning ahamiyati va maʼnaviyatga taʼsiri ....202
Fayziyeva Dilfuza Tohir qizi

The Importance of Modern Technologies For Improving Speech Skills of Primary Students ....206
I. A. Komolova

Boʻlajak pedagoglarning taʼlim jarayonida sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanishining oʻziga xos imkoniyatlari ....209
Inadullayeva Sevara Qahramonovna

Oʻquvchilarning jamoada ishlash koʻnikmalarini rivojlantiruvchi metodlar ....212
Jumanova Shaxnoza Baxromjanovna

Ulugʻbek Hamdamning "Isyon va itoat" romanida obrazlar hayotiga konfliktning taʼsiri ....215
Karimova Mahliyoxon Mahkamjon qizi

Sharq mutafakkirlari qarashlarida harbiy xizmatchilarda psixik oʻzini oʻzi boshqarish muammolarining metodologik tahlili ....219
Kiyomxujaeva Madina Rustambek qizi

Xorijiy tillarni oʻqitishda milliy va xalqaro tajribalarni solishtirish ....224
Jumaboyeva Malika, Eshpolatova Nozima, Neʼmatova Shahzoda, Razzakova Nodira

Maktabgacha taʼlim tashkilotida markazlar faoliyatini rivojlantirishda tarbiyachining nutqiy madaniyati ....227
Nazarova Zulayxo Turabovna, Oydinova Baxriniso Burxon qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni faoliyatlar orqali maʼnaviy-maʼrifiy qiyofasini shakllantirishda tarbiyachining vazifalari ....231
Niyozova Maftuna Normaxmat qizi

Boʻlajak oʻqituvchilarni raqamli taʼlim muhitida "Smart-Learning" texnologiyalarini samarali qoʻllashga tayyorlash metodikasi (umumiy pedagogika misolida) ....234
Nurullayeva Ugulxon Ergashboyevna

Oʻqish savodxonligini rivojlantirishning zamonaviy didaktik yondashuvlari ....237
Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi, Azimova Ziyoda Ergashevna

Adabiy taʼlimda oʻquvchilarning refleksiv koʻnikmalarini rivojlantirish pedogogik muammo sifatida ....241
Qodirova Dilnoza Alisher qizi

"Yorugʻlik dispersiyasi va uni hosil boʻlishi" mavzusini eksperimental yoʻl bilan tushuntirish metodikasi ....245
Rashidova Vazira Baxodir qizi

Oliy taʼlim muassasalari talabalarini akademik mobillik asosida oʻqitish tizimini takomillashtirish muammolari va ularning yechimlari ....248
Ruziyeva Shoxida Fatilloyevna

Literature is A Reflection of the Soul and Culture of Humanity ....254
Sayidova Sayyora Yorikulovna

Linguistic Devices in Detective Terminology of "The Purloined Letter" by Edgar Allan Poe ....257
Shokirova Markhabo

Maktab direktorlarining psixologik bilimlarini rivojlantirishning ahamiyati va yoʻnalishlari ....260
Talabayev Utkirjon Rosuljonovich

Boʻlajak harbiy xizmatchilarda empatiya orqali kasbiy moslashuvchanlikni oshirishning ijtimoiy-psixologik asoslari ....263
Toshmatov Rustamjon Muydinjon oʻgʻli

Tanqidiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik va psixologik nazariyasi boʻyicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili ....266
Xudoyorova Gavhar Baxtiyor qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati ....271
Yakubova Zilola Zikirovna

Zulfiya sheʼriyatida vafodor ayol timsoli ....274
Yusupova Muqaddam Mahmutjonovna

Yangi davr – yangi dars: taʼlimdagi zamonaviy metodlar ....278
Jumoniyozov Nurbek Xudoyorovich

Взаимное сотрудничество Республики Узбекистан и Республики Азербайджан в формировании современной системы международных отношений ....280
Исломов Абдулазиз Латиф угли

# SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA HARBIY XIZMATCHILARDA PSIXIK O'ZINI O'ZI BOSHQARISH MUAMMOLARINING METODOLOGIK TAHLILI



Kiyomxujaeva Madina Rustambek qizi
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning psixik o'zini o'zi boshqarishiga xos xususiyatlar, shuningdek, harbiy shaxsiyatning shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Unda, shuningdek, o'zini o'zi boshqarishning nazariy va metodologik asoslari, psixik o'zini o'zi boshqarishning ilmiy-psixologik muammolari, nazorat ongining rivojlanishi hamda shu kabi boshqa masalalar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** harbiy shaxsiyat, psixika, shakllanish, shaxs rivojlanishi, psixik o'zini o'zi boshqarish, emotsional holat, dominant ehtiyoj.

**Abstract:** This article examines the distinctive features of mental self-regulation in military personnel, as well as the socio-psychological aspects of the development and formation of the military personality. It also analyzes the theoretical and methodological foundations of self-regulation, the scientific and psychological issues of mental self-regulation, the development of regulatory consciousness, and other related topics.

**Key words:** military personality, psyche, formation, personality development, mental self-regulation, emotional state, dominant need.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются характерные особенности психической саморегуляции военнослужащих, а также социально-психологические аспекты формирования и развития военной личности. Также анализируются теоретические и методологические основы саморегуляции, научно-психологические проблемы психической саморегуляции, развитие регуляторного сознания и другие смежные вопросы.

**Ключевые слова:** военная личность, психика, формирование, развитие личности, психическая саморегуляция, эмоциональное состояние, доминирующая потребность.

## KIRISH

Bugungi zamon harbiy xizmat faoliyatida harbiylarning psixik o'zini o'zi boshqarishi asosiy muammolardan biri bo'lib, uning ildizlari qadimgi davrlardan kelib chiqqan va ahamiyatli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda tartibsiz axborot hurujlari oqimida, globallashuv davrida shaxsning, xususan, harbiy xizmatchining o'zini o'zi boshqarish psixologiyasi tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki xizmat olib borayotgan shaxs har doim ham hissiy va xulq-atvor resurslarini boshqara olmaydi. Ayniqsa, dunyodagi turli tahdidlar, urushlar, tizimdagi keskin o'zgarishlar, vazifa va yuklamalarning kundan kunga ortib borishi, harbiy xizmatchiga nisbatan talablarning ko'payib borishi insoniyatning odatiy mavjudligini izdan chiqaradi. Bu esa uning hayotining barcha sohalarida – xususan, oilada, professional xizmat vaqtida, jamiyatdagi turli faoliyat jarayonlarida, jamoat tartibini saqlashda yuzaga keladigan fuqarolar bilan munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik o'zini o'zi boshqarish kundalik hayotning ko'plab jabhalariga, jumladan, ijtimoiy vaziyatlarga, shaxsiy salomatlikni boshqarishga, impulsivlik va xatti-harakatlarni, ya'ni psixomotorikani boshqarishga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Zero, o'zini o'zi anglash va stressli vaziyatlarda o'zini o'zi boshqarish shaxsni rivojlantirish uchun meta-resurslarning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi. Ekstremal sharoitlarda vazifalarni bajarish harbiy xizmatchidan yuqori kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bu nafaqat turli sharoitlarda jang qilish qobiliyatini, balki psixik jarayonlarning yetarliligini, jangovar vaziyatga mos talablarga javob bera olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Shu bois tarixga nazar tashlar ekanmiz, shaxsning o'zini o'zi boshqarish muammolari bugungi kun masalasi emas, balki bir necha asrlar avval ham axloqiy-irodaviy xislatlarga katta e'tibor berilgan. Hokimiyatni

egallashda, vazirlar tayinlashda, lashkarlar va sipohiylarni harbiy yurishlarga jalb etishda, erkak va ayollarning vazifalarini taqsimlashda, avlodlarni kelgusida buyuk shaxs qilib tarbiyalashda bu masala dolzarb bo'lib kelgan. Sharq allomalari inson aqlini yuksakka ko'tarish, uning qobiliyatiga ishonish, barkamol avlodni yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish zarurligi haqida fikr yuritgan. Ularning tarbiya va bilim berish uslublari har bir zamonda muhim hisoblangan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari – Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Abdulla Avloniy kabi siymolar, jadid olimlar millatimizning faxri bo'lib, ularning ilmiy-ma'naviy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa, barkamol shaxsni tarbiyalash bo'yicha ular tomonidan berilgan ko'plab tavsiyalar hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib, aynan nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligi borasidagi tavsiyalar juda muhimdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqorida bayon etganimizdek, Abu Nasr al-Farobiyning asarlarida ham insonni ulug'lash, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, mardlik, saxiylik, kamtarlik, rostgo'ylik, do'stlik, olijanoblik, muruvvatlilik, odob-axloq, ilm-ma'rifat g'oyalari ilgari surilgan. Abu Nasr al-Farobiyning fikricha: "...maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya – insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi". "Bunday inson barkamollikning oliy sohibi va baxt-saodat bo'ladigan xatti-harakatni biladigan zotdir".

Mutafakkir yoshlarni navqironlik davrining har daqiqasini qadriga yetishga, halol mehnat qilib, farovonlik va baxt-saodatga erishishga chaqiradi. Abu Nasr al-Farobiy inson yolg'iz o'zi mukammallikka erisha olmaydi va u boshqalar bilan aloqada yoki munosabatda bo'lishi hamda ularga yordam berishi kerakligini ta'kidlab o'tgan. Insonning maqsadli tarbiyalanishi intellektual va axloqiy jihatlari bo'yicha muhimdir. Xususan, inson shaxslararo munosabatlarga kirishganda ham tarbiyasi orqali ijtimoiy-psixologik normalarga zid kelmagan holda tabiat va jamiyat qoidalarini hamda o'z huquqlarini mukammal o'zlashtira oladi. Shu fikrlarga misol qilib al-Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi "Fozil shahar hokimining fazilatlari haqida so'z" bobini keltirish mumkin. Unda har tomonlama yetuk shaxs – ayniqsa boshqaruv tizimidagi kadrlar qanday xislatlarga ega bo'lishlari, davlat boshqaruvida hokimlarning qaysi jihatlari ibrat bo'lishi hamda nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligi quyidagicha ta'kidlab o'tiladi: "Fozillar shahrining birinchi boshlig'i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur. Fozillar shahri hokimi, avvalo, to'rt muchasi sog'-salim, tabiatan nozikfahm, anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qoluvchi, zehni o'tkir, zukko, fikrini ravshan tushuntira oluvchi, ta'lim olishga, bilim-ma'rifatga havasli bo'lishi; o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur."[1]

Albatta, yuqoridagi barcha individual psixologik xususiyatlarning bir shaxsda jamlanishi amrimahol, zero bunday tug'ma xislatlar sohibi bo'lgan insonlar juda kam uchraydi. Ular psixologik va fiziologik jihatdan yetuk, barqaror va barkamol shaxslar deb ataladi. Al-Farobiyning asarlaridan shuni anglashimiz mumkinki, boshqaruvga kelgan rahbarda yuqoridagi fazilatlar yoshlikdan shakllangan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, aynan harbiy xizmatchilar, harbiy shaxslar uchun xizmat faoliyatida psixologik barqarorlikni ta'minlay olishi maqsadida bir qator psixologik xususiyatlar ham belgilab berilgan.

Xususan: boshqaruv tizimida yetarli quvvatga ega bo'lish; kutilmagan voqealarni oldindan ko'ra olish uchun bashoratgo'ylik (ya'ni ekstremal va favqulodda vaziyatlarni oldindan payqay olish – bu sifat xalq farovonligini yaxshilash yo'lida zarur); xalq va qo'l ostidagilar bilan samarali kommunikatsiyaga kirishish uchun qizg'in va ravon so'zlay olish – notiqlik san'ati, ya'ni oratorlik; mohirona rahbarlik qilish uchun yetarli darajada jismoniy quvvatga ega bo'lish (bu, o'z navbatida, jang qilish, sarkarda sifatida jangu-jadalga rahbarlik qilish, harbiy san'atni chuqur bilishni anglatadi). Ushbu xususiyatlar harbiy shaxslarning stressga bo'lgan barqarorligini oshiradi hamda ekstremal vaziyatlarda o'zini o'zi boshqara olish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aynan ruhiy salomatlik va psixologik masalalar doirasida ko'plab tibbiyot va falsafaga oid risolalarda muhim fikrlar yoritilganiga qaramay, Abu Ali ibn Sino shaxs psixologiyasiga alohida asarlarini bag'ishlagan. Ibn Sino psixofiziologik muammoni hal qilishda inson psixikasining manbai aql ekaniga xulosa qiladi. Miya va hissiy organlarda aqliy kuchlarning lokalizatsiyasi olimlar tomonidan inkor etib bo'lmaydigan haqiqat sifatida tan olingan: har bir aqliy funksiyaning hissiy nervlar yoki miya yarim sharlari mintaqasiga to'g'ri kelishi qayd etiladi. Miya shikastlanishidan kelib chiqadigan buzilishlarni kuzatish, uning sezgi va fikrlash jarayonlari bilan

1 Abu Nasr Forobiy (Tarjimonlar: Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon) "Fozil odamlar shahri", "Yangi asr avlodi" nashriyot-matbaasi, 2022 yil, 320 bet ISBN: 978-9943-27-613-0

bog'liqligini mutafakkirga masalani chuqurroq tahlil qilish imkonini bergan. Shu bois, ruhiy kuchlar o'z-o'zidan mavjud emas, balki ma'lum bir tana organiga bog'liq degan xulosaga kelinadi.

Ammo shunga qaramay, inson psixikasi lingvistik shaklda o'lmas hisoblanadi. Shuning uchun qalb va g'oya o'rtasidagi bog'liqlik, ya'ni o'lmas g'oyaning tashuvchisi sifatida inson qalbi ta'kidlanadi. Ibn Sino tarixda psixodiagnostikaning birinchi eksperimentlarini tasvirlaydi – vegetativ sohadagi o'zgarishlar orqali hissiy kompleksni aniqlash (turli tashqi omillarga reaksiya paytida yurak urish tezligining oshishi). Shuningdek, u hissiyotlar psixologiyasi bo'yicha ilk tajribalarni o'tkazadi va eksperimental psixofiziologiya kurtaklarining affektiv holatlari (masalan, bo'rining oldida qo'chqorlarni bir xil ovqat bilan boqish) asosida chuqur somatik siljishlar paydo bo'lishida "o'zaro bog'liqlik" – qarama-qarshi hissiy munosabatlar roli haqida fikr bildiradi. Ibn Sinoning tadqiqot obyekti yoshga bog'liq psixofiziologiya hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tug'ilishdan balog'at yoshigacha insonning rivojlanish jarayonida nafaqat fiziologik o'sish, balki aqliy xususiyatlardagi o'zgarishlar ham muhim ahamiyatga ega. Ibn Sino rivojlanayotgan organizm tuzilmasiga ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida ta'limni belgilaydi. Fiziologik jarayonlarning borishiga ta'sir qiluvchi his-tuyg'ular, bolada atrofdagi insonlarning unga ko'rsatgan munosabati natijasida shakllanadi. Bolada ma'lum ta'sirlarni yuzaga keltiruvchi kattalar uning fiziologik xususiyatlarini shakllantiradi. Shu bilan, Ibn Sinoning fiziologik psixologiyasi tanadagi jarayonlarni boshqarish, unga boshqa insonlarning xatti-harakatlari orqali hissiy hayotini shakllantirish orqali ma'lum barqarorlikka erishish imkoniyati haqidagi psixofiziologik qarashlarini ifodalaydi. Bu g'oya ruhiy va fiziologik munosabatlarning o'zaro bog'liqligini asoslab, tibbiy tajribaning muhimligini ko'rsatadi. Ana shunday fikrlarni o'z ichiga olgan asarlardan biri Kaykovusning "Qobusnoma"[2]si bo'lib, u Sharq taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Asarning so'nggi bobida juvonmardlik haqida so'z yuritiladi. Muallif odamlarning xislatlarini uch xilga bo'ladi: aql, rostlik va juvonmardlik. Juvonmardlikning asosini u uch jihatda ko'radi: birinchisi – aytgan so'zining ustidan chiqish, ya'ni rostlik; ikkinchisi – rostlikka xilof qilmaslik; uchinchisi – xayr ishlarini ilgari surish.

Shuningdek, asarda inson hayotida bilimning beqiyos o'rni, aqlan yetuklik har qanday moddiy boylikdan ustun ekani ta'kidlanadi: "Agar mol-mulking kamayib qolsa, aql bilan boyishga harakat qil, zero aqliy kamolot mol-mulkdan yaxshiroqdir. Chunki aql bilan boylik orttirish mumkin, boylik bilan esa aql topib bo'lmaydi. Savodsiz johil qashshoq bo'lib qolaveradi. Aqlni esa o'g'ri o'g'irlay olmaydi, suv oqizib ketmaydi, olov yondirib yubormaydi." Kaykovus o'z asarida inson xislatlarini aql, rostlik va mas'uliyatga ajratib, "aql"ni hayot davomida eng muhim jihat sifatida ko'rsatadi. Aql tashqi kuchlar tomonidan tortib olinmaydi; u insonning hayotiy tajribasi natijasida shakllanadigan va shaxs o'zini boshqarishida xizmat qiluvchi psixologik vositadir. Aqlsiz inson esa jamiyatda samarasiz bo'lishi mumkin. Amir Temur hokimiyatining ulug'ligi ko'p jihatdan uning xarakter xususiyatlariga bog'liq va buni uning asarlarini o'qish bilan birga tahlil qilganimizda ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Zero, Temuriy saltanatining beqiyos kuchi va qudrati uning sarkardasining xarizmasiga bog'liq bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Chunonchi, uning davlat boshqaruvi, muloqot usullari, oilaga munosabati, shaxsiy tarkibni shakllantirish, o'zini baholash, imkoniyatlarini sarflay olish, odamiylik tamoyillariga qat'iy amal qilishi, adolat mezonidagi barqarorligi kabi shaxsiy psixologik xususiyatlari zamonaviy harbiy xizmatchi uchun ham shaxsiy namuna bo'la oladi. Sarkardaga, yakkabosh yetakchiga xos individual sifat – bu uning psixologik jihatdan o'zini o'zi boshqara olishidir. Psixik o'zini o'zi ichki boshqaruvchanlik – tashqi reaksiyalarni, jamoa ichidagi turli norozilik va kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish yoki bartaraf etishiga xizmat qiladi. Bu esa vazminlik, o'ylab ish ko'rish, obyektiv qaror qabul qilish, sovuqqonlik bilan g'alabaga erishish imkoniyatini oshiradi. Jumladan, Temur tuzuklaridagi "Vazirni tanlash tuzuki" haqida fikr yuritar ekanmiz, unda buyuk sarkardamiz, davlat arbobi Amir Temur hokimiyatni qanday shaxslarga topshirish mumkinligi va qandaylarga topshirish mumkin emasligi haqida o'z tuzuklarida yozib o'tgan. Amir Temur vazirlar tanlash masalasini muhim ishlardan biri deb hisoblagan va uning aytishicha, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim: birinchisi – asillik va toza nasllik, ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik va ularga nisbatan xushmuomalalik, to'rtinchisi – sabr-toqat va tinchliksevarlik. So'hibqiron shunday fazilat sohiblarigagina davlat ishlarini ishonib topshirish mumkin deb hisoblagan. Amir Temur o'z avlodlarini ogohlikka chaqirib: "...asli toza, nasli pok, ulug' zotlardan bo'lgan, yaxshi ravishlik kishilarni topib vazir qilinglar. Chunki asli toza kishi xatolikka yo'l qo'ymaydi, va'dasiga esa vafo qiladi", – degan xulosalarga kelgan va "asl-nasli tozaligi" deganda shaxsni shakllantiruvchi biologik, ya'ni irsiy, ijtimoiy va tarbiyani nazarda tutgan.

Shaxs o'zini o'zi boshqarish muammosi nafaqat muloqotda, munosabatda yoki faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi, balki o'sha jarayonlarda uning har qanday vaziyatga ichki tayyorlik holati orqali baholanadi. Bu borada adabiyotlarni tahlil qilish orqali emotsiyaga beriluvchanlik nafaqat ijtimoiy hodisalarga nisbatan, balki shaxsning

2 Kaykovus. Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchi S. Dolimov. – Toshkent: "O'qituvchi", 2004. - 153-bet

ichki xulqini namoyon etishgacha bo'lgan psixika bilan bog'liqligini aytishimiz uchun asoslar mavjud. Xususan, lavozim tanlashda yoki oiladagilarga nisbatan yuqori empatik munosabatlarning shakllanganligi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Do'stlar bilan o'rtoqlikdagi hissiy bog'liqlik jihatlari Nizomulmulkning "Siyosatnoma"si, Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarlarida ham yoritilgan. U yerda ma'lumot olishdagi zo'riqishlar, tushunmovchiliklar insonda ayrim frustratsion holatlarni yuzaga keltirishi mumkinligi haqida fikr yuritilgan.

Xususan, aytishimiz mumkinki, Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ilmni behuda egallamaslik, har bir shaxs foydasi tegadigan ilmni o'rganish zarurligi ta'kidlangan:

Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,
Zarur bo'lmaganni axtarib yurma.
Zarurini hosil qilgandan keyin,
Unga amal qilmay umring o'tkurma.[3]

Abdurahmon Jomiy asarda bilimning inson hayotidagi ahamiyati, ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi o'rni va rolini ochib berish bilan birga, har bir kishi tomonidan ma'lum hunar sirlarini o'zlashtirish foydadan holi bo'lmasligini uqtiradi. Ayni o'rinda insonning qadr-qimmati uning mol-mulki bilan emas, balki u egallagan hunarning kishilar maishiy hayoti farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati bilan belgilanadi. Demak, bilimni to'g'ri manbalardan o'zlashtirish, ishonchli ma'lumotlargagina amal qilish, shunchaki xabardorlik bilan umr o'tkazmay, olingan bilim va hunarni jamiyat, oila taraqqiyoti va samaradorligi uchun xizmat qildirish, uni avloddan avlodga sof holatda yetkazish zarur. Aynan shu zarurat shaxsdagi kognitiv jarayonlarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ma'lumotni tushunish, unga amal qilish va undan samarali foydalanish – inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'rifi bilan aytganda, axloq ulamolari insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lganlar: agar nafs tarbiya topib, yaxshi ishlarni qilishga odatlanadigan bo'lsa, bu yaxshilik sifatida tavsiflanib, "yaxshi xulq" deb ataladi; agar esa tarbiyatsiz o'sib, yomon ishlarga moyil bo'lib ketsa, bu yomonlik sifatida tavsiflanib, "yomon xulq" deb ataladi.

Tushunamizki, xarakter aktsentuatsiyasi va motivlar o'zgarishi oqibatida shaxsda ijobiy yoki salbiy xulq namoyon bo'ladi. Janobi Haq insonni asl xilqatda iste'dodli va qobiliyatli qilib, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin bu qobiliyatni kamolga yetkazish faqat tarbiya orqali yuzaga chiqadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bejiz emas. Insonning javhari qobildir: agar u yaxshi tarbiya olib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlansa, har kim oldida maqbul va baxtli inson sifatida yetishadi. Ammo agar tarbiyatsiz bo'lib, axloqi buzulsa, Allohdan qo'rqmaydigan, shariatga amal qilmaydigan, nasihatga quloq solmaydigan, turli buzuq ishlarni qiladigan nodon va johil bir rasvoyi olamga aylanadi. Rasuli Akram, Nabiyyi Muhtaram sallallohu alayhi vasallam: "Imoni komil bo'lgan kishilar – yaxshi xulqli bo'lurlar. Sizning eng yaxshilaringiz – ayollariga yaxshilik qiluvchilaridir", deganlar. Xulqning reaksiyasi insonning emotsional intellekti darajasiga bog'liq bo'lib, u xulq-atvor ko'rinishida ijtimoiy intellekt tomonlarini ham namoyon etadi. Demak, psixik o'zini o'zi boshqarish hissiy ichki kechinmalarning tashqi vizual namoyon bo'lishi orqali kuzatiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma'lumki, shaxsning ichki boshqaruv tuzilmasi ehtiyoj asosida shakllanadigan motivlarga tayanadi va bu motivlar emotsional beqarorlik yoki barqarorlikni yuzaga keltiradi. Har bir motiv ostida biror dominant ehtiyoj yotadi. Bu dominant ehtiyojlar psixologik ustanovkalar shakllanishiga xizmat qiladi. Shaxsning psixologik ustanovkalari esa uning bilim, tajriba va malakalari asosida ijtimoiy munosabatlarini belgilaydi. Ehtiyojlarni shartli ravishda anglash – shaxs psixikasining barqarorlik darajasini ko'rsatadi. Ongning ehtiyojlarni tanlab olish xususiyatiga tayanib, ulamolarning tarbiyaviy qarashlari asosida shuni aytishimiz mumkinki: faollikning jismoniy va psixik ko'rinishlari shaxsning sog'lom ichki boshqaruviga sabab bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abu Nasr Forobiy (Tarjimonlar: Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon). Fozil odamlar shahri. "Yangi asr avlodi" nashriyot-matbaasi, 2022-yil, 320 bet. ISBN: 978-9943-27-613-0
2. Kaykovus. Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchi: S. Dolimov. – Toshkent: "O'qituvchi", 2004. – 153-bet
3. Mamatov X. T. Temur tuzuklari. – B. 94, 50
4. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – T.: "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1971. – 195 bet
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent: "Yoshlar" nashriyot uyi, 2018. – 97 bet. ISBN: 978-9943-5318-1-9

3 Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. –T.: "Adabiyot va san'at" nashriyoti. 1971. - 195 bet

6. Абдуллажанова Дилнозахон Султанбековна (2025). Подходы изучения криминогенного климата в обществе и его социально-психологические аспекты. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.15319349
7. Abdullajonova, D. (2025). The social and psychological characteristics of an education manager in a higher military educational institution. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 5(1), 30–39.
8. Abdullajanova, D. S. (2025). Psychological criteria of formation of psychological portrait in training personnel for the innovation management process. Modern Education and Development, 21(2), 55–66.
9. Д. С. Абдуллажанова, & Д. О. Абдубокиев. (2025). Социально-психологические особенности развития активности личности в военном деле. Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi, 44(1), 274–280.
10. Rejametova, I. (2025). Harbiy xizmatchilarning oilasini ijtimoiy-psixologik va pedagogik moslashuvida muomala va uning roli. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 5(1), 39–50.
11. Rejametova, I. I. (2025). Harbiy xizmatchilarning oilasini ijtimoiy-psixologik va pedagogik moslashuvida muomala va ahamiyati. Modern Education and Development, 21(2), 67–79.
12. Rejametova, Irada Ikramshikovna. (2025). Bo'lajak ofitserlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik jihatlari. Tadqiqotlar, 59(4), 36–43.
13. Saipova, Malaxat. (2025). Results of the study on the process of self-actualization among adolescents. Ta'lim Innovatsiyasi va Integratsiyasi, 44(1), 255–263.
14. Latipovna, S. M., & Sodirzoda, S. R. (2018). Traditional and modern foreign language teaching methods. Вопросы науки и образования, (10(22)), 187–190.
15. Saipova, M. (2023). The results of the research on the perspectives of family life of teenagers raised in migrant families. European International Journal of Pedagogics, 3(03), 16–20.
16. Saipova, M. (2023). Causes of instability of emotional experiences in modern adolescents. Eurasian Journal of Academic Research (ISSN: 2181-2020), 3(01).
17. Saipova, M. (2023). The content of the psychologist's work with children of labor migrants. American Journal of Social Sciences and Humanity Research, 3(02), 72–76.
18. 18. https://cyberleninka.ru/article/n/vzglyady-vostochnyh-mysliteley-ob-obraze-zhizni-i-deystvii/viewer

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №5**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.